

**“BOLALARDA NUQSONLARNING KELIB CHIQISH
SABABLARI VA BELGILARI”**

Jizzax shahar 32-sonli DMTT logopedi

Begmatova Munira Tolibjon qizi

Jizzax shahar 32-sonli DMTT tarbiyachisi

Inomova Manzura Shavkatovna

***Annotatsiya:** Mazkur maqola mavzusi “**Bolalarda nuqsonlarning kelib chiqish sabablari va belgilari**” deb nomlangan. Maqola kirish qismida mavzuning dolzarbligi, o’rni, ahamiyati batafsil yoritilgan, maqsad va vazifalari bayon etilgan hamda amaliy ahamiyati keltirilgan. Muammoning o’rganilishining ilmiy va nazariy asoslari, rivojlanishida nuqsoni bo’lgan bolalar haqida umumiy ma’lumot, bolalarda nuqsonlarning kelib chiqish sabablari va belgilari haqida yoritilgan. Rivojlanishida nuqsoni bo’lgan bolalar shaxsini shakllantirish xususiyatlari, nuqsonlarni korreksiyalashda psixologik o’yinlar ahamiyati, o’yinlar, tavsiyalar, metodikalar shuningdek, xulosa, adabiyotlar ro’yxati berilgan.*

***Abstract:** The topic of this article is “Causes and symptoms of defects in children” In the introductory part of the article, the relevance, place, and importance of the topic are explained in detail, the goals and tasks are described, and the practical importance is presented. The scientific and theoretical foundations of the study of the problem, general information about children with developmental disabilities, the causes and symptoms of children's disabilities are covered. Features of the personality formation of children with developmental disabilities, the importance of psychological games in the correction of disabilities, games, recommendations, methods, as well as a conclusion, a list of literature is given.*

Rivojlanishida nuqsoni bo’lgan bolalar (rivojlanishida psixik- jismoniy kamchilikka ega, rivojlanishdan orqada qolish, rivojlanishida muammoga ega,

alohida yordamga muhtoj) - sensor organlarning orttirilgan yoki tugʻma organik jarohatlanishi natijasida markaziy nerv sistemasi yoki harakat-tayanch apparati va psixik funksiyalarning meyorda rivojlanishida kamchiliklarga ega boʻlgan bolalar kiradi. Baʼzi hollarda rivojlanishdagi kamchiliklar markaziy nerv sistemasi yoki analizatorlardagi nuqsonlar bilan bogʻliq boʻlmasdan, mikroijtimoiy muhit sabablari natijasida kelib chiqadi. Bularga oiladagi tarbiya salbiy shakllari, ijtimoiy va hissiy deprivatsiyani kiritishimiz mumkin. G.Y.Troshin meyorida va anomal rivojlanishning umumiy qonuniyatlari xaqidagi fikrni ilgari surgan, buni esa koʻpgina tadqiqotchilarning (T.A. Vlasova, J.LShif, V.I.Lubovskiy) keyingi ishlarida ham koʻrishimiz mumkin. L.S.Vigotskiy meyorida va anomal rivojlanishning umumiy qonuniyatlarini izohlab, ular uchun psixik rivojlanishning ijtmioiy xarakterdaligi umumiydir: pedagogik ta'sir meyorda ham shuningdek rivojlanishning buzilishida ham oliy psixik funksiyalarning shakllanish manbai hisoblanadi, deb taʼkidlagan. Ammo, meyorida rivojlanayotgan bolalarda kuzatilmaydigan, lekin rivojlanishida nuqsoni boʻlgan bolalarda uchraydigan bir qator qonuniyatlar ham ajratiladi. T. A.Vlasova, V.I.Lubovskiy ishlarida anomal rivojlanuvchilarning umumiy qonuniyatlari bir tizimga keltirilgan.

Umumiy qonuniyatlardan tashqari oʻziga xos qonuniyatlar ham mavjud, ular rivojlanishida nuqsoni boʻlgan baʼzi bolalarga xosdir. Ushbu oʻziga xos qonuniyatlar bizga differensial diagnostik mezonlar orqali rivojlanishida nuqsoni boʻlgan bolalar toifalarini chegaralash mumkin. Biroq, V.I.Lubovskiy oʻziga xos qonuniyatlar umumiyga nisbatan kam oʻrnatilganini eʼtirof etgan.

Hozirgi paytda rivojlanishida nuqsoni boʻlgan bolalar bir qancha kategoriyalarga ajratilgan:

- eshitishda nuqsoni boʻlgan (kar va zaif eshituvchilar);
- koʻrishida nuqsoni boʻlgan (koʻr va zaif koʻruvchilar);
- harakat-tayanch aʼzolarida nuqsoni boʻlgan;
- ogʻir nutq nuqsonlariga ega boʻlgan bolalar;
- psixik rivojlanishi orqada qolganlar;

- aqli zaiflar;
- hissiy-iroda doirasida og'ir nuqsonlarga ega bo'lgan bolalar;
- xulqi buzilishlariga ega bo'lgan bolalar;

-rivojlanishda murakkab nuqsonlilar, ularda ikkita yoki undan ko'p birlamchi nuqsonlar kuzatiladi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lganlarning har bir turida o'ziga xos nuqsonlar darajasining namoyon bo'lishi kuzatiladi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lganlarni diagnostika qilishda ularning umumiy xususiyatlariga tayanmasdan, balki boladagi ijobiy xususiyatlari va potensial imkoniyatlariga tayanish zarur.

Rivojlanishdagi me'yordan chekinishlar yoki nuqsonlar asosida nerv sistemasining yoki muayyan analizatorning buzilishlari yotadi: ularning natijasida alohida organlar yoki butun organizmning tuzilishi va faoliyatida chekinishlar yuzaga keladi. Chekinishlar bachadon ichida, tug'ruqdan keyingi rivojlanish jarayonida, irsiy omillar ta'siri natijasida yuzaga kelishi mumkin. Anomaliyalarning yuzaga kelish sabablari bilan bog'liq holda ularni tug'ma va egallangan turlari farqlanadi. Har qanday patologiyada nerv sistemasida shikastlanish o'choqlarini topish mumkin. bunday hollarda tug'ma yoki egallangan organik shikastlanishlar borligi nazarda tutiladi. Biroq organik shikastlanishlar bilan bir qatorda o'ta ta'sirchanlik yoki tormozlanish, alohida funktsional sistemalar ishining muvofiqlashmaganligi bilan bog'liq holda nerv sistemasidagi u yoki bu bo'limlar funktsiyasining buzilishlari uchrashi mumkin. Bunday hollarda nerv faoliyatining funktsional buzilishlari haqida so'z yuritiladi. Tug'ma anomaliyalarning yuzaga kelish sabablari turlicha. Tug'ma anomaliyalar bachadon ichida rivojlanish davrida embrion yoki rivojlanayotgan homilaga har xil zararli ta'sirlar (intoksikatsiyalar – organizmning zaharli moddalar bilan zaharlanishi, infeksiyalar, jismoniy va psixik jarohatlar, toksikozlar, noto'g'ri ovqatlanish, homilador ayolning turli kasalliklari – yurak, o'pka, endokrin bezlar) natijasi bo'lishi mumkin. Onaning och qolishi, distrofiya, noto'g'ri ovqatlanish homilada oziqa moddalar (oqsillar, yog'lar, uglevodlar, vitaminlar)ning yetishmovchiligiga sabab bo'ladi. Gormonal buzilishlar, buyrak va jigar

kasalliklari, onaning ichkilikka ruju qo'ygani, homiladorlik paytida antibiotiklar, sul'fanilamid preparatlarni va h.k. iste'mol qilish va shu kabi boshqa omillar ham homila rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bachadon ichidagi infektsiyalarni har xil kasalliklar viruslari (qizilcha, gripp, qizamiq va h.k.) keltirib chiqarishi mumkin. homila kasalligining manbai – onaning o'zi. Tug'ma qizilchada ko'z kasalliklari, masalan, katarakta (ko'z gavharining xiralashishi), shuningdek tayanch-harakat organlarining shikastlanishi kuzatiladi. Ona va homila qonining rezus moslashmaganligi natijasida har xil miya shikastlanishlari yuzaga keladi. Bunday hollarda qobiq osti hosilalari, qobiqning chakka sohalari va eshitish nervlari aziyat chekadi. Rivojlanayotgan homilaga patologik omillarning ta'sir ko'rsatish vaqti bilan ular ta'siridagi salbiy oqibatlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqa mavjud. Embriyon bachadon ichidagi rivojlanishida qancha erta shikastlangan bo'lsa, ushbu zararli holatlar keltirib chiqaradigan oqibatlar shunchalik og'ir bo'ladi. Eng qo'pol nutq nuqsoni homilaning 4 haftadan to 4 oygacha bo'lgan davrda rivojlanishi buzilganida yuzaga keladi. Ko'p hollarda tug'ma bolalar nuqsonlari genetik (irsiy) omillarning ta'siri sifatida yuzaga keladi. Xromosomalarning soni va tuzilishidagi buzilishlar keltirib chiqargan ayrim oligofreniya turlari (masalan, Daun kasalligi) va psixozlar irsiy yo'l bilan o'tishi mumkin. Yangi tug'ilgan chaqaloqlar orasida xromosomalar keltirib chiqargan kasalliklar 1%ni tashkil qiladi. Shuningdek karlikning ayrim turlari va ko'rish analizatorlarining ayrim buzilishlari ham nasldan naslga o'tishi kuzatiladi. Xromosomalar kasalliklarida mikrotsefaliya (katta yarim sharlar qobig'ining rivojlanmay 82 qolishi) uchrashi mumkin, bu chuqur aqliy nuqsonni kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Ota-onadagi generativ hujayralarning rivojlanmay qolganligi nafaqat irsiyat bilan bog'liq bo'ladi, balki tashqi ta'sirlarda ham sodir bo'lishi mumkin. Masalan, ona organizmiga yadro nurlanishining ta'siri yoki u yashab turgan joydagi ekologik buzilishlar ko'p hollarda bolaning majruh bo'lishiga va aqliy orqada qolishiga olib kelishi mumkin. Naslga ota-onaning ichkilikka va giyohvandlikka ruju qo'ygani ham naslga katta salbiy ta'sir ko'rsatadi va tug'ma nuqsonlarni keltirib chiqaradi. Onaning ichkilikbozligi

homilaning markaziy nerv sistemasida, suyak sistemasi va ichki organlarida patologik o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. "Alkogolizm sindromi" degan holat kuzatiladi, va u homila o'sishining orqada qolishi, mikrotsefaliya (boshning kichrayishi), mushaklarning zaiflashuvi, o'ta ta'sirchanlik va betartib harakatlanish bilan kechadi. Orttirilgan bolalar anomaliyalari bolaning tug'ilish paytida va keyingi rivojlanish davrlarida uning organizmiga yetkaziladigan turli zararli ta'sirlar oqibatida ham yuzaga kelishi mumkin. Bunda homilaning mexanik shikastlanishi (tug'ruq paytidagi jarohatlar), tug'ilayotgan bola nafasining to'xtab qolishi (tug'ruq paytidagi asfiksiya) juda xavfli. Tug'ruq jarayoni qanday kechgani bolaning keyingi rivojlanishi uchun g'oyat muhim. Hozirgi paytda nomaqbul tug'ruq holatlari ko'p uchraydi. Ayniqsa har xil tug'ruq jarohalari tez-tez uchrab turadi. Ular orasida asfiksiya – homilaning bo'g'ilishi birinchi o'rinda turadi. Keyin keng uchrash darajasi bo'yicha bosh suyagining lat yeyishi, miya jarohatlari, tug'ruq paytida tug'ayotgan ayol holatining noto'g'riligi, masalan, tug'ruq faoliyatidan keyin oyoqqa turishi keladi. Bola ilk yoshida (1-3 yoshlarda) boshidan kechirgan og'ir kasalliklarni natijasida markaziy nerv sistemasining organik shikastlanishi kelib chiqishi mumkin. Bularga meningitlar, entsefalitlar, poliomielitlar, qizamiq, gripp kiradi. Meningit (miya qobiqlarining yallig'lanishi) bilan kasallanish gidrotsefaliyalar, karlik, tayanch-harakatning buzilishi, ruhiy rivojlanish orqada qolishga olib kelishi mumkin. Entsefalit (bosh miyaning yallig'lanishi) bilan kasallanish oqibatida ko'p jihatdan bemorning yoshiga bog'liq. Bolaning ilk yoshida bu chuqur ruhiy va motor rivojlanishning orqada qolishi, affektiv portlashlar, kayfiyatning nobarqarorligiga sabab bo'ladi. Poliomielit (nerv sistemasining o'tkir infeksiyon kasalligi) bolaning harakatlanish imkoniyatlarini keskin cheklab qo'yishi mumkin. Bu kasallik alohida mushaklar guruhining barqaror falajlanishi bilan kechadi. Bola hayotining nomaqbul ijtimoiy shart-sharoitlari ham uning rivojlanishiga u yoki bu darajada salbiy ta'sir ko'rsatmay qo'ymaydi. Ular erta bola nato'g'ri rivojlanishiga olib keladi. Bu esa bolaning ham jismoniy, ham intellektual, ham shaxs sifatidagi rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Bola rivojlanishida kamchiliklarni chetlab o'tish imkoni

bo'lmay qolgan hollarda bor kuchni bola organizmining sog'lom tizimlaridan maksimal darajada foydalanish, bola rivojlanishidagi kamchiliklar bilan bog'liq qiyinchiliklarga qaramay, unga hayotda o'z o'rnini topishga yordam berishga qaratish lozim. Rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalar bu jismoniy yoki ruhiy rivojlanishi buzilgan va maxsus ta'lim sharoitlariga ehtiyoj sezgan bolalardir. Kamchiligi bo'lgan bolalar va me'yordagi bolalarning rivojlanishi bir xil qonuniyatlar asosida kechadi. Buzilgan rivojlanish jarayonida bolada bu rivojlanishning nafaqat salbiy, balki ijobiy jihatlari ham namoyon bo'ladi. Rivojlanishi orqada qolgan bolalarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ularda saqlanib qolgan funktsiyalardan foydalanish evaziga tabiiy kompensatsiya jarayonlari kechadi. Biroq kamchiligi bo'lgan bolalarning rivojlanishini me'yorga maksimal darajada yaqinlashtirish uchun korreksion yo'nalishga ega bo'lgan va nuqsonning o'ziga xos tomonini hisobga olgan maxsus pedagogik ta'sir ko'rsatish tizimi talab qilinadi.

Rivojlanishdagi nuqsonlarni tashxis qilish uch bosqichni o'z ichiga oladi:

Birinchi bosqich - skrining nomini olgan. Ushbu bosqichda bola rivojlanishidagi orqada qolish, psixik-jismoniy kamchiliklari aniqlanadi, lekin ularning xarakteri va chuqurligi belgilash murakkab bo'ladi.

Ikkinchi bosqich - rivojlanishdagi nuqsonlarni differensial tashxis qilish. Ushbu bosqichning maqsadi rivojlanish nuqsonini turini (xil, toifasini) aniqlash. Uning natijalariga ko'ra bolaning imkoniyat va xususiyatlarini hisobga olgan xolda, ularning ta'lim olishlari uchun ta'lim muassasasini turi va dasturi, optimal pedagogik yo'llanmasi aniqlanadi. Psixologo-tibbiy-pedagogik komissiyaning faoliyati differensial diagnostikada yetakchi rolni egallaydi.

Uchinchi bosqich - fenomenologik. Uning maqsadi - bolaning individual xususiyatlari, ya'ni tafakkur faoliyatining xarakteristikasi, hissiy-iroda doirasi, ishchanlik qobiliyati, shaxsi o'rganilib u bilan ishlash bo'yicha korreksion rivojlantiruvchi individual shart-sharoitni tashkillashtirishdir.

Bolani erta tashxis qilib o'rganishning muhimligi shundaki, u orqali bolani korreksion ta'limga vaqtida yo'naltirib, ikkilamchi nuqsonlarni paydo

bo'lishini oldini olish mumkin. Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlariga korreksion va diagnostik yordam ko'rsatish va bola imkoniyatlariga baho berish hamda psixik rivojlanishini aniqlash orqali korreksion pedagogik ishning vazifalarini xal etish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son qarorini bajarish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qaror.
- 2.Sobirov S.T. "Some factors that impede the development of students' creative abilities in fine art classes". Asian Journal of Research № 1-3, 2020, ISSN 2433-202x. 2020 yil. 214-218 b.
- 3.D.A.Nurkeldiyeva, M.U.Hamidova "Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar diagnostikasi". Toshkent 2016 –yil.
5. "Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan korreksion logopedik ish" o.,quv – uslubiy majmua.
6. M.Y.Ayupova. "Logopediya" 10.08.2007-yil 4. Raxmanova V.S. "Korreksion pedagogika va logopediya " 2007-yil
7. Xasanova M. M, Halimova O. M. RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI O'RGANISHGA KOMPLEKS YONDOSHUV.